

TIBBIYOT NIMA VA YAXSHI SHIFOKORLAR QANDAY BO'LADI**Axtamova Go'zal Ilhomovna**

Toshkent shahridagi Yeju texnika
Instituti "Davolash ishi" yo'nalishi
62-guruh, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Tibbiyot- bu bemorlarga g'amxo'rlik qilish, kasallikni oldini olish, tashxis qo'yish, kasallikni yengillashtirish, davolash, sog'liqni mustahkamlash, haqidagi fan va amaliyot. Tibbiyot- inson organizmida sodir bo'ladigan turli jarayonlarni o'rganish va paydo bo'ladigan kasalliklarni davolash bilan bog'liq bo'lgan ilmiy fanlar, amaliy faoliyatlarni majmuasi. Ushbu maqola tibbiyotning rivojlanish tarixi, tibbiyot yangiliklari, bo'lajak shifokorlarning fazilatlari, tibbiy malaka, axloq, tibbiy boshqaruv, ta'limi haqida.

Tayanch so'zlar: normal va patologik jarayonlar, tibbiy etika, tibbiy malaka, shifokor fazilatlari, appenditsit, in vitro urug'lantirish, vabo, tif, chechak epidemiyalari, anestetika, antibiotiklar, insulin garmoni rentgen nurlari, DNK testi, vitaminlar, qon turlari, to'liq va yarim avtomatlashtirilgan uskunalari.

Tibbiyot- inson organizmidagi normal va patologik jarayonlarni, turli kasalliklarni o'rganish, ularni davolash, odamlar salomatligini saqlash va mustahkamlash bo'yicha ilmiy va amaliy soha. Tibbiyot o'zining ko'p asrlik tarixida juda murakkab yo'lni bosib o'tgan. Bu asosan, kasallikni aniqlash, oldini olish, davolash, uning kelib chiqish sabablari va rivojlanish mexanizmlarini o'rganish, har bir shaxs yoki butun jamoa sog'lig'ini saqlash, mustahkamlashga qaratilgan bilim va tajribalardan iboratdir. Zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi tarixiy davrlarni turli qarashlarni ichiga olib, turli kasalliklar, ularni davolash oldini olish haqidagi bilimlar asosi qadimdan xalqning tajriba va kuzatishlariga bog'liq. Pavlov "Tibbiy faoliyat dastlabki odam bilan tengdosh" deb yozgan. Shifokorlik kasbi eng qadimiylardan biridir. Ibtidoiy davrlarda ko'plab o'simliklarning ko'plab o'simliklarning xususiyatlarini biladigan ulardan qanday foydalanishni biladigan tabiblar bo'lgan.

Ularning tibbiy faoliyati natijasida vaqt o'tishi bilan tajriba to'planib, tibbiyot fan sifatida rivojlangan. Shifokor odamlarning salomatligi va hayotiga ta'sir qiladigan eng muhim qarorlarni qabul qilishi kerak. U muayyam kasalliklarni oldini olish va davolash bilan shug'ullanadigan muttaxis. Bemorlar nuqtai nazaridan, yaxshi shifokorni shaxsiy fazilatlarga, texnik ko'nikmalarga, malakali bilimga va yaxshi niyatga ega bo'lgan shifokor deb ta'riflash mumkin. Yaxshi shifokorda umumiy shaxslararo munosabatlar, tibbiy malaka, axloq, tibbiy boshqaruv, tadqiqod va uzluksiz ta'lim muhim o'rin tutadi. Bemorlar uchun shifokorlar bilan suhbat ko'pincha salbiy hisoblanadi, chunki u ko'p

hollarda og'riq, kasallik va noaniqlik bilan bog'liq. Shaxslararo munosabatlar tibbiyot bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Tibbiy xodimning axloqiy mas'uliyati tibbiy etikaning barcha prinsiplariga rioya qilishni nazarda tutadi. Bemorlarga tashxis qo'yish, davolash davomida noto'g'ri xatti-harakatlar bemorlarning jismoniy va ma'naviy azoblanishiga olib kelishi mumkin.

Shifokorlar o'z bemorlarini diqqat bilan tinglashi va aniq tushunishi bemorning savollariga bemor tushunadigan tarzda javob berishi kerak. Bemorlarga maksimal e'tibor berish, uni tinchlantirish, rejimga rioya qilishi zarurligini tushuntirishi, dori-darmonlarni muntazam iste'mol qilishini nazorat qilishi va sog'lig'ini saqlash, vaziyatni yaxshilashga ishontirishi kerak. Bemorlar bilan gaplashishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Ayniqsa, bolalarni davolash tibbiy xodimdan kasbiy tayyorgarlikdan tashqari, xotirjamlik va bolani qadirlashni talab etadi. Bolani shaxsiy xarakteriga e'tibor berish muhimdir. Tibbiy malaka shifokorlarning asosiy kompetensiyasi. Tibbiy ta'limning eng keng qismi tibbiy vakolatlar sohasiga bag'ishlangan. Tibbiy malakaga: kasallik tarixini olish, tegishli tashxis qo'yish va terapiyani topish, aniqlik, tajriba, shuningdek, tibbiy muommolarga yaxlit nuqtai nazar kiradi. Shifokor va bemor munosabatlari ishonch va halollikni talab qiladi. Qadimgi tibbiyotning bugungi kungacha saqlanib qolgan ko'rsatmalari orasida buyuk yunon shifokori Gippokratning "zarar qilmang" deb shifokorlarga murojaat qilgan. Tibbiyotning rivojlanishi odamlarning ta'limi va tarbiyasiga, bilim darajasiga bevosita bog'liq. Shifokorda xushmuomilalik, boshqalarga hurmat, jozibadorlik, yordam berishga tayyorlik, diqqatlilik, kuzatuvchanlik, muloqot qobiliyati, boshqalarga ishonch bo'lishi kerak. Odamlarga bo'lgan muhabbat ham muhimdir, chunki shifokorlar doim shikoyatlarni tinglaydi, muloqot qiladilar va bemorlarga ma'naviy yordam ko'rsatadilar. Ishonch uyg'otish va bemorning ahvolini og'irlashtirmaslik uchun sabrli bo'lish muhim. Shifokorning irodaviy fazilatlari, chidamlilik, jasorat, vazminlik, mustaqillik, qat'iyat, tashabbuskorlik, talabchanlikdir.

Shifokorning o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati, vazifalarni to'g'ri rejalashtirish qobiliyati o'z ishining eng yaxshi muttaxasisi bo'lishi uchun juda muhim. Shifokorning faoliyati ularning murakkab mehnati qadrlanishi kerak, chunki, aynan munosib rag'batlantirish shifokorni faollashtiradi, ilhomlantiradi, unga ishonch bag'ishlaydi va bemorlar bilan munosabatiga ijobiy ta'sir qiladi. Salbiy munosabatlar esa, aksincha, faoliyatiga yomon ta'sir qilishi mumkin. Shifokorning tashqi ko'rinishi estetik jihatdan ifodali bo'lishi kerak. Toza libos va bosh kiyimi, poyabzal, tirnogi olingan yaxshi tozalangan qo'llar. Xatto qadimgi hind tibbetlarida shifokor o'z izdoshlariga: "Sizni endi ehtiros, g'azab, ochko'zlik, aqlsizlik, xasad, vaxshiylik, xatolik, dangasalik va har bir yomon xulq tark etadi" degan. Har doim shifokorga parfumeriya va kosmetikadan foydalanish mumkin emas deb hisoblanadi. Chunki, kuchli va o'tkir xid astma, o'tkir hiddan bo'ladigan reaksiya va uning allergiyasi

turli nohush xolatlarga olib kelishi mumkin. Kasb ko'p jihatdan ajoyib ko'rinsada, uning salbiy tomoni borki, u hamma uchun mos kelmasligi mumkin. Masalan: ta'lim olishning uzoq muddatli davom etishi, katta mas'uliyat, xato uchun joy yo'qligi, juda band ish jadvali (tungi ish, dam olish va bayram kunlari ham) kuchli stress va yuqumli kasalliklarning bemordan shifokorga yuqushi.

Tibbiyot bugungi kunda biz ko'rgan natijalarga erishish uchun uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bundan 100-200 yil oldin appenditsit to'satdan o'linga olib kelishi bilan yakunlangan. Tibbiyotning rivojlanishi natijasida ko'p sonli kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash mumkin. Masalan: in vitro urug'lantirish, uning yordamida ko'plab bepusht juftliklar ota-ona bo'lishlari mumkin. Anestiziyaning kashf etilishi, bakteriyalarga qarshi antibiotiklar kashfiyoti, rentgen nulari, qandli diabetga qarshi endokrinologiyada insulin garmoni, saratonga qarshi kurashda kimyoterapiya. 19-asrgacha davom etgan vabo, tif, chechak epidemiyalarga qarshi emlash, qon turlarini aniqlash, 20-asrda tibbiyotning yuksalishi natijasida vitaminlarning faol qo'llanilishi. Ulkan kashfiyotlardan biri tananing genetik xususiyatlarini va turli kasalliklar, patologiyaga moyilligini aniqlash uchun qo'llaniladigan DNK testi, shuningdek, inson salomatligi holatini yaxshilash uchun va nazorat qilish uchun to'liq avtomatlashtirilgan va yarim avtomatlashtirilgan uskunalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalmatova B.T, Karimov M.SH, Oxunov A.O.- Tibbiyot kasbiga kirish
2. Verena Steiner-Hofbauer. – What is a good doctor ? /Wiener Medizinische Wochens 168,398-405(2018)
3. Qodirov A.A -Tibbiyot tarixi/2005-166b
4. Rizayev J.A- Problems of biology and medicine/1996
5. Nishonboyev K.N Hamidov J.H -Tibbiy biologiya va genetika / 2005.